

XALQARO MUNOSABATLARDA YANGI MARKAZIY OSIYO

Ubaydulla Rasulov

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining Xalqaro aloqalar bo'limi bosh mutaxassisi

ubaydullarasulov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining xalqaro munosabatlar sohasida parlament diplomatiyasini rivojlantirishdagi strategik yo'nalishlari tahlil qilinadi. Parlament diplomatiyasi tashqi siyosatning muhim vositasi sifatida xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish, qonunchilik orqali tashqi siyosiy manfaatlarni ilgari surish va siyosiy ishonchni mustahkamlashda alohida o'rin tutadi. Maqolada O'zbekiston parlamentining tashqi siyosatdagi ishtiroki, parlamentlararo hamkorlik mexanizmlari va qonunchilik tashabbuslari o'rganiladi. Tadqiqotda SWOT-tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil hamda tizimli yondashuv metodlari qo'llanilib, Yevropa Ittifoqi, ASEAN, Turkiy davlatlar tashkiloti va boshqa xalqaro institutlar tajribasi bilan taqqosiy tahlil amalga oshirilgan. Shuningdek, O'zbekistonda parlament diplomatiyasining institutsional va tashkiliy infratuzilmasini mustahkamlash orqali mintaqaviy xavfsizlik, tinchlik va barqarorlikka erishish imkoniyatlari tahlil etiladi. Xulosa o'rnida, samarali parlament diplomatiyasining tashqi siyosatni diversifikatsiyalashda va O'zbekistonning xalqaro nufuzini oshirishda tutgan o'rni asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Parlament diplomatiyasi, tashqi siyosat, qonunchilik, xalqaro hamkorlik, SWOT-tahlil, O'zbekiston, Yevropa Ittifoqi, ASEAN, Turkiy davlatlar tashkiloti, xavfsizlik, barqarorlik, institutlar.

Abstract: This article analyzes the role and significance of parliamentary diplomacy in the field of international relations of the Republic of Uzbekistan. Parliamentary diplomacy is presented as a key tool in advancing foreign policy objectives, enhancing mutual trust, and deepening international cooperation through legislative engagement. The study examines mechanisms aimed at strengthening inter-parliamentary relations, increasing the role of legislative bodies in foreign affairs, and improving diplomatic instruments. Using SWOT analysis, comparative legal analysis, and a systems approach, the article draws parallels with the practices of the European Union, ASEAN, the Organization of Turkic States, and other international institutions. Special attention is paid to institutional and organizational foundations of parliamentary diplomacy in Uzbekistan, as well as its potential to contribute to regional security, peace, and political stability. The findings underline

the importance of effective parliamentary diplomacy in diversifying foreign policy and strengthening Uzbekistan's international standing.

Keywords: *Parliamentary diplomacy, foreign policy, legislation, international cooperation, SWOT analysis, Uzbekistan, European Union, ASEAN, Organization of Turkic States, regional security, political stability, institutions.*

KIRISH (INTRODUCTION)

So'nggi yillarda O'zbekiston tashqi siyosatida parlament diplomatiyasining o'rni ortib bormoqda. Qonunchilik palatalarining xalqaro hamjamiyat bilan aloqalarini faollashtirish, mintaqaviy va global muammolarni muhokama qilishda deputatlarning ishtirokini ta'minlash — zamonaviy diplomatik siyosatning ajralmas qismiga aylanmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasida yuz berayotgan geosiyosiy siljishlar, iqtisodiy va siyosiy integratsiya harakatlari xalqaro munosabatlar doirasida yangi tafakkur paradigmasini shakllantirmoqda. Yangi Markaziy Osiyo tushunchasi post-sovet davri davlatlarining o'zaro hamkorligini mustahkamlash, tashqi kuchlarga nisbatan muvozanatli siyosat yuritish va barqarorlikni ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarini anglatadi. Ushbu maqola Yangi Markaziy Osiyoning shakllanishi, asosiy tashqi siyosiy yo'nalishlari va xalqaro munosabatlar tizimidagi o'rnini tahlil qiladi.

USUL VA MATERIALLAR (METHODS AND MATERIALS)

Ushbu tadqiqotda Markaziy Osiyo mintaqasidagi transchegaraviy siyosiy jarayonlarni chuqur anglash maqsadida kompleks va tizimli yondashuv asos qilib olindi. Mintaqaviy va global siyosiy munosabatlarni tahlil qilishda geosiyosiy voqeliklarni o'zaro aloqadorlikda o'rganish metodologiyasi qo'llanildi. Bu jarayonda quyidagi metodik yondashuvlar asosiy vosita sifatida tanlandi. Tizimli yondashuv bu yondashuv V. Дроздов va R. Brzezinski kabi olimlar ishlanmalariga tayangan holda, siyosiy hodisalarni izolyatsiyalangan emas, balki mintaqaviy va global tizimdagi o'zaro bog'liq elementlar sifatida o'rganishga imkon berdi. Zamonaviy davr — bu dinamik dunyoning o'zgarish vaqti. Bugungi kunda zamonaviy siyosiy jarayonlar, uning ijtimoiy tizimlari va mazmuni o'zgarib bormoqda. XX asrning aksariyat voqeligi qonli urushlar, qadriyatlarning antagonizmi, o'zaro yopiq va qarama-qarshi bo'lgan ikki mafkuraviy tizim o'rtasidagi ziddiyatli to'qnashuv davri sifatida tavsiflangan bo'lsa, yangi asrda insoniyat yangicha dunyo tartibini yaratishga intilmoqda. XXI asr yangilanayotgan dunyo tartibida turli mafkuraviy yo'nalishlar: ko'p qutblilik, ko'p madaniyatlilik, ko'ppartiyaviylik, diniy bag'rikenglik, va shubhasiz, globallashuv va integratsiya jarayonlari barcha mamlakatlarni o'z ichiga qamrab oldi. Zamonaviy xalqaro munosabatlar dialektikasi o'z mohiyatiga ko'ra,

xalqaro hamjamiyat davlatlarini davr chaqiriqlariga javob berishni talab qilmoqda. qiladi". Markaziy Osiyo respublikalari inson kapitaliga, xususan, yoshlarning sifatli ta'lim olishidan tortib, intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishiga katta hajmda investitsiya kiritishi zarur. Bu kelajakda nafaqat iqtisodiyotni yuksaltirish, balki ijtimoiy vaziyatni barqarorlashtirish – kambag'allik va salohiyatli kadrlar migratsiyasini qisqartirish, ishsizlikni bartaraf etish, xalqning turmush darajasini oshirish imkonini beradi. Inson kapitalini rivojlantirish – bir kunlik ish emas. Mazkur missiya kompleks yondashuv va uzoq muddatli prinsiplar chora-tadbirlarni talab qiladi. Bu borada tayyor yechimlar yo'q. Har qaysi mamlakat bu borada o'z yo'li va yo'nalishini mustaqil tarzda belgilab olmog'i darkor. Yoshlar, avvalo, ota-onasiga ishonadi. Ularning fikricha, yaxshi insonlar ota-ona farzandlari bilan doimiy muloqot olib boradigan, kasbiy yuksalishiga yordam beradigan, o'rinli tanqidiy mulohazalar bildirib, dunyoqarashini kengaytiradigan oilalardan yetishib chiqadi. Ba'zi respondentlar yaxshi insonni tarbiyalashda o'qituvchining ham roli muhimligini qayd etgan. Bizda yosh avlodga yetkazishimiz mumkin bo'lgan ulkan ma'naviy ma'rifiy xazina mavjud, bu – buyuk ajdodlarmizning bebaho ilmiy merosi. Yana bir muhim qadriyat – xalqimizning islom dini bilan bog'liq mustahkam e'tiqodi va qadriyatlari. Insonning ma'naviy barkamol shaxs bo'lib yetishishga targ'ib qiluvchi g'oyalari, buyuk axloq, adolat, halollik, insonparvarlik, tinchliksevarlik, xalqparvarlik kabi ko'plab xislatlarni o'zida jamlaganligi – ta'lim-tarbiyani o'z vaqtida, ta'sirchan shaklda berilishida muhim o'rin tutadi.

Tadqiqotda foydalanilgan asosiy materiallar: Xalqaro tashkilotlar hujjatlari: MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi), SHHT (Shanxay Hamkorlik Tashkiloti), BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), YXHT (Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti) doirasida qabul qilingan qarorlar, deklaratsiyalar, konferensiya bayonnomalari⁷, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mintaqaviy xavfsizlik, suv resurslarini boshqarish va chegaralarni delimitatsiya qilish bo'yicha nutqlari tahlil qilindi⁸, Tahliliy markazlar kabi tashkilotlarning nashrlari⁹.

USLUB VA MATERIALLAR (METHODS AND MATERIALS)

Tadqiqotda mintaqaviy va global munosabatlar tahlili, geosiyosiy voqealarni anglashda tizimli yondashuv, shuningdek, SWOT-tahlil va voqelikka asoslangan

⁷ "Declaration of the Council of Heads of State of the SCO on Building a Community with a Shared Future" SCO Secretariat, 2022. P. 57-61.

⁸ Mirziyoyev Sh.M. "Mintaqaviy siyosatimiz asosida o'zaro hurmat, ishonch va manfaatlar muvozanati yotadi", 2023.

⁹ "Cross-border tensions in the Fergana Valley: Towards Sustainable Dialogue". : ICG. 2023.

qiyosiy metodlar qo'llanildi. Ma'lumotlar sifatida MDH, BMT, YXHT va Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) doirasidagi hujjatlar, siyosiy bayonotlar, tahliliy markazlar hisobotlari va nufuzli ilmiy maqolalardan foydalanildi.

NATIJALAR (RESULTS)

Mamlakatimizda keyingi yillarda tashqi siyosat sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga, mamlakatimizning xalqaro maydondagi salohiyatini kengaytirishga va xorijiy davlatlar bilan keng qamrovli hamda o'zaro manfaatli aloqalarini rivojlantirishga xizmat qilib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida "O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir. O'zbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga hamda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa prinsiplari va normalariga asoslanadi" 18-moddasida "O'zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko'p tomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshiradi[1]. O'zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlaridan, uning farovonligi va xavfsizligidan kelib chiqqan holda ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi hamda ulardan chiqishi mumkin" degan qoidaning belgilab qo'yilishi mamlakatimiz tashqi siyosatni amalga oshirishda qat'iy pozitsiyaga ega ekanligini ko'rsatadi. Xalqaro munosabatlarda davlatlararo munosabatlar asosiy o'rinni egallagani bois diplomatiya tashqi siyosatni amalga oshirishning jud muhim vositasi hisoblanadi. O'zbekiston tashqi siyosati diplomatiyasining asosiy maqsadi davlat suverenitetini himoya qilish, tinchlik, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikni ta'minlash maqsadida barcha davlatlar bilan manfaatli hamkorlikni o'rnatishdan iborat hisoblanadi. 2012-yil sentyabrda O'zbekiston Respublikasining «Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi» qabul qilindi. Konsepsiya "Umumiy qoidalar" va to'rtta bo'limdan iborat bo'lib, u o'tgan davr mobaynida O'zbekiston Respublikasi progressiv tashqi siyosatining asosiy maqsad-vazifalarini va ustuvor yo'nalishlarini o'zida mujassam etdi. O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi – bu davlat tashqi siyosatining prinsiplari va strategik ustuvor yo'nalishlarini, xalqaro maydondagi maqsad va vazifalarini, istiqbolda O'zbekiston milliy manfaatlarini ilgari surish mexanizmlarini belgilab beradigan qarashlarning yaxlit tizimidir[2]. Mazkur Konsepsiyada Markaziy Osiyo mintaqasiga alohida e'tibor qaratilgan va «O'zbekistonning hayotiy muhim manfaatlari shu mintaqaga bog'liq» ekanligi rasman e'tirof etilgan. Unda Markaziy

Osiyo o'zining muhim geosiyosiy joylashuvi va mineral xomashyo resurslarining ulkan zahiralarga ega ekanligi tufayli jahon miqyosida kuchli e'tibor ob'yektiga, yirik davlatlarning strategik manfaatlarini to'qnashadigan hududga aylanib borayotgani ta'kidlangan. Shuningdek, dunyoning yirik davlatlari tomonidan mintaqada olib borilayotgan o'zaro raqobat inobatga olinib, «Markaziy Osiyo muammolari tashqi kuchlarning aralashuviz, mintaqadagi davlatlarning o'zlari tomonidan yechilmog'i zarur», degan fikr bayon etilgan. Konsepsiyada O'zbekistonning tinchliksevar siyosat yuritishi, harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmasligi, har qanday davlatlararo tuzilmalar harbiy-siyosiy blokka aylangan taqdirda, ulardan chiqish huquqini o'zida saqlab qolishi ta'kidlandi va bu orqali mazkur konsepsiya O'zbekistonda amalga oshirilayotgan siyosiy jarayonlarning huquqiy asosi bo'lib xizmat qildi. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi farmoni bilan "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" tasdiqlandi. Strategiya dolzarb hamda aholi va tadbirkorlarni tashvishga solayotgan masalalarni kompleks o'rganish, qonunchilik, huquqni muhofaza qilish amaliyoti va xorijiy tajribani tahlil qilish yakunlari bo'yicha ishlab chiqilgan[3]. Harakatlar strategiyasi 5 bosqichda amalga oshirilib, ularning har biri bo'yicha yil nomlanishidan kelib chiqqan holda alohida bir yillik davlat dasturini tasdiqlashni nazarda tutadi. Mazkur strategiya boshinchi bosqichi "Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat" deb nomlanib tashqi siyosatning amalga oshirilishida muhim o'rin tutdi. Keyingi yillarda yuqoridagi dasturni izchil davom ettirish maqsadida muhtaram yurtboshimiz Sh.Mirziyoyevning 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli farmoni asosida "O'zbekiston–2030" strategiyasi ishlab chiqildi. Mazkur strategiya yetti bo'limdan iborat bo'lib 100 ta maqsadni o'z ichiga oladi. Ushbu strategiya 93-maqsadidan toki 100-maqsadiga qadar mamlakatimizning tashqi siyosat masalalariga alohida e'tibor qaratildi[4]. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi. Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining tahlili, bugungi kunda jahon bozori talabi keskin o'zgarib, globallashtirish sharoitida

raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuvni ishlab chiqishni taqozo etdi. Bu xususida muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev so'z yuritib quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan edi. "O'zbekistonning tashqi siyosati Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomida mustahkamlab qo'yilgan asosiy huquq va tamoyillarga va Konstitutsiyamizga, biz zimmamizga olgan xalqaro majburiyatlarga to'liq mos holda amalga oshirilmoqda. Biz bundan buyon ham tashqi siyosatimizni olib borishda O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy konsepsiyasida belgilangan strategik vazifalar va ustuvor yo'nalishlarga tayanamiz. Biz o'zimiz tanlagan, tinchlikparvarlikka asoslangan, yuzaga keladigan ziddiyat va qarama-qarshiliklarni faqat tinch, siyosiy vositalar bilan hal etishga qaratilgan yo'lga doim sodiqmiz. Hech qanday harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmaslik, boshqa davlatlarning harbiy bazalari va obektlarining O'zbekiston hududida joylashuviga va harbiylarimizning chet ellardagi operatsiyalarda ishtiroketishiga yo'l qo'ymaslik davlatimizning qat'iy siyosiy pozitsiyasi bo'lib qoladi. Tashqi siyosat sohasidagi barcha hamkorlarimizga nisbatan ochiqlik va xayrixohlik ruhida, pragmatik siyosat olib boramiz" [5].

Yuqorida muhtaram prezidentimiz tomonidan qayd etib o'tilgan fikrlar mamlakatimizning tinchlik va o'zaro mustahkam ishonch asosida amalga oshirilayotgan tashqi siyosatining bardavom amalga oshirilishining tasdig'idir. O'zbekistonning amalga oshirilayotgan yangi tashqi siyosati xalqaro hamjamiyat tomonidan munosib baholanmoqda. Xususan, AQSHdagi Gudzon instituti Harbiy-siyosiy tadqiqotlar markazi direktori Richard Vays fikricha, O'zbekistonning tashqi siyosiy tashabbuslari butun Markaziy Osiyo uchun yangi imkoniyatlarni ochmoqda. Rim geosiyosiy tadqiqotlar instituti (IsAG) Yevrosiyo dasturi ilmiy xodimi Fabrissi Viyelmini qayd etishicha, uzoq vaqt regional jarayonlardan chetda bo'lgan O'zbekiston bugungi kunda yangicha harakat qilmoqda. Mintaqa yuragi hisoblangan Toshkent Markaziy Osiyoda barqarorlashtiruvchi davlat tabiiy rolini o'ziga qaytarib olmoqda. Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi Andrey Grozin ham hozirgi paytda Markaziy Osiyoda davlatlararo munosabatlar tizimi shakllanayotganligiga e'tibor qaratadi. Uning so'zlariga qaraganda, so'nggi vaqtda Toshkent turli xil yo'nalishlar bo'yicha yuqori faollikni namoyon qildi va Mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlarda sezilarli sog'lomlashish belgilari yaqqol ifodalanmoqda [6].

XULOSA (CONCLUSION)

Yangi Markaziy Osiyo konsepsiyasi xalqaro munosabatlarning yangi bosqichiga o'tishni bildiradi. Bu bosqichda mintaqaviy davlatlar o'zlarining tashabbuslari bilan global tizimga integratsiyalashmoqda. Shu bois, mintaqadagi siyosiy irodaning

mustahkamligi va doimiy muloqot madaniyatining shakllanishi Yangi Markaziy Osiyoning barqaror va taraqqiyotga yo'naltirilgan bo'lishini ta'minlaydi.

REFERENCES

1. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Qonunchilik milliy bazasi.01.05.2023-y. 03/23/837/0241-son).// www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi "Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi" 16.09.2012. Mazkur konsepsiya hozirda tahrir ostida. (Manba. www.lex.uz)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. Manba. <http://www.lex.uz>
4. O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH.M.Mirziyoyevning "O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash bo'yicha 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli farmoni. // www.lex.uz
5. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
6. Gennady Krasnikov elected new President of the Russian Academy of Sciences". 2022-yil